

## CHET TILIDA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

**Komilova Gulnoz**

Toshkent kimyo texnologiya instituti

Toshkent, O'zbekiston

e-mail: @gulnoz queen

<https://orcid.org/0000-0002-4421-1438>

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada chet tilini o'qitish jarayonida talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari hamda fanlararo integratsiya yondashuvining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda CLIL (Content and Language Integrated Learning) konsepsiyasi asosida til va mutaxassislik fanlarini uyg'un holda o'qitishning nazariy hamda amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, munozaralar va jamoaviy faoliyat orqali talabalarning tanqidiy fikrlashi, ijodkorligi hamda hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Maqolada fanlararo integratsiya talabalarda chet tilida erkin va mazmunli muloqot qilish imkoniyatini yaratishi, tabiiy kommunikativ muhitni shakllantirishi hamda o'quv motivatsiyasini oshirishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari integrativ yondashuvning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** *fanlararo integratsiya, og'zaki nutq, chet tili, CLIL, kommunikativ kompetensiya.*

**Аннотация.** В данной научной статье рассматриваются современные подходы к развитию навыков устной речи учащихся в процессе обучения иностранному языку на основе междисциплинарной интеграции. Особое внимание уделяется применению концепции CLIL (Content and Language Integrated Learning), которая предполагает одновременное освоение предметного содержания и иностранного языка. В исследовании анализируются коммуникативный подход, интерактивные методы обучения, а также технологии, направленные на формирование критического мышления, креативности, навыков сотрудничества и активного речевого взаимодействия. Подчеркивается, что междисциплинарная интеграция способствует созданию естественной языковой среды, повышает мотивацию учащихся и делает процесс коммуникации более содержательным и практико-ориентированным. Кроме того, рассматриваются педагогические условия, необходимые для эффективного развития устной речи, включая использование проектной деятельности, дискуссий, ролевых игр и проблемно-ориентированных заданий. Результаты исследования подтверждают, что интегративный подход способствует повышению коммуникативной компетенции и формированию устойчивых навыков устного общения на иностранном языке.

**Ключевые слова:** *междисциплинарная интеграция, устная речь, иностранный язык, CLIL, коммуникативная компетентность.*

### KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tilini o'qitish jarayoni nafaqat til birliklarini o'rgatish, balki talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni ham maqsad

qiladi. Globallashtirish sharoitida chet tilida erkin muloqot qila olish kasbiy va akademik muvaffaqiyatning muhim omiliga aylanib bormoqda. Shu bois, chet tilini o'qitishda fanlararo integratsiya yondashuvini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Fanlararo integratsiya chet tilini boshqa fanlar mazmuni bilan uyg'un holda o'qitish orqali til o'rganishni real hayot va kasbiy faoliyat bilan bog'lash imkonini beradi. Bu esa og'zaki nutq ko'nikmalarining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Fanlararo integratsiya — bu turli fanlar mazmuni, metodlari va kompetensiyalarini o'zaro bog'lagan holda ta'lim jarayonini tashkil etishdir. Chet tilini o'qitishda integratsiya tilni maqsad emas, balki bilim olish vositasi sifatida qo'llashga imkon yaratadi. Fanlararo integratsiya ta'lim jarayonida bilimlarni fragmentar emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv konstruktivizm nazariyasiga asoslanib, o'rganuvchining avvalgi bilimlari bilan yangi bilimlarni faol bog'lashini ta'minlaydi. Chet tilini o'qitishda fanlararo integratsiya tilni maqsad emas, balki bilish va muloqot vositasi sifatida namoyon etadi.

CLIL yondashuvi fanlararo integratsiyaning samarali modeli bo'lib, unda fan mazmuni va til bir vaqtda o'rgatiladi. Natijada talabalar tilni sun'iy mashqlar orqali emas, balki mazmunli muloqot jarayonida egallaydi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

So'nggi yillarda chet tillarini o'qitishda fanlararo integratsiya yondashuvi ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda fanlararo integratsiya ta'lim jarayonida bilimlarni alohida fanlar doirasida emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik yondashuv sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv nofilologik oliy ta'lim yo'nalishi talabalalarining nafaqat fan bilimlarini, balki muloqot, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda fanlararo integratsiyaning ta'lim sifati va o'quvchilarning faolligiga ijobiy ta'siri alohida ta'kidlanadi. Jumladan, integratsiyalashgan ta'lim modeli bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash orqali o'rganish samaradorligini oshirishi qayd etilgan. Ayrim olimlar fanlararo integratsiyani fanlarni mexanik birlashtirish emas, balki didaktik va metodik jihatdan asoslangan sintez jarayoni sifatida izohlaydi.

Chet tilini fanlararo integratsiya asosida o'qitish masalasi ko'pincha CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi doirasida o'rganilgan. CLIL metodologiyasiga oid tadqiqotlarda chet tilini fan mazmuni orqali o'rganish talabalarning og'zaki nutq faolligini oshirishi, akademik va kasbiy leksikani rivojlantirishi hamda muloqotga bo'lgan ishonchni kuchaytirishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, ayrim ilmiy ishlarda CLIL yondashuvini qo'llashda o'qituvchining metodik tayyorgarligi va baholash mezonlarini aniqlash muammolari mavjudligi ko'rsatib o'tilgan.

Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar og'zaki nutq kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi ekanini tasdiqlaydi. Ilmiy adabiyotlarda og'zaki nutqni rivojlantirishda interaktiv metodlar, muammoli topshiriqlar, guruhviy va juftlikda ishlash shakllari samarali ekanligi qayd etilgan. Tadqiqotchilar og'zaki nutqning ravonligi, aniqligi va mantiqiy izchilligini rivojlantirish uchun real muloqot muhitini yaratish muhimligini ta'kidlaydilar.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ko'pincha alohida metodik yondashuvlar doirasida o'rganilgan bo'lib, ularni fanlararo integratsiya asosida tizimli shakllantirish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, chet tilini o'qitishda fan mazmuni bilan og'zaki nutq faoliyatini uyg'unlashtirishga qaratilgan metodik modellarning ilmiy asoslanishi kam uchraydi.

Do Coyle, Philip Hood va David Marsh Ushbu olimlar CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvini ishlab chiqqan yetakchi tadqiqotchilar hisoblanadi. Ularning fikriga ko'ra, chet tilini alohida predmet sifatida emas, balki fan mazmunini o'zlashtirish vositasi sifatida qo'llash tilni tabiiy muloqot jarayonida o'rganishga imkon beradi. Olimlar CLIL asosidagi ta'lim talabalarning og'zaki nutq faolligini oshirishi, chunki talabalar real fan mavzulari doirasida fikr bildirishga majbur bo'lishini ta'kidlaydilar. Shuningdek, ular CLIL 4C (Content, Communication, Cognition, Culture) modeli orqali og'zaki nutqning mazmuniy va kognitiv jihatdan boyishini asoslab beradilar (Brinton, Snow, & Wesche, 2003).

J. Richards kommunikativ yondashuv tarafdori sifatida og'zaki nutqni chet tilini o'rganishdagi asosiy maqsad deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, til o'rganish jarayoni muloqotga asoslangan bo'lishi lozim va bu jarayonda talabalar fikr almashish, bahslashish va o'z pozitsiyasini himoya qilish orqali nutqiy kompetensiyani rivojlantiradi. Richards fanlararo integratsiya orqali yaratilgan muloqot muhiti kommunikativ yondashuv talablariga to'liq mos kelishini qayd etadi (Harmer, 2007).

J. Harmer og'zaki nutqni rivojlantirishda interaktiv faoliyat muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, talabalar faqat grammatik qoidalarni bilish orqali emas, balki real vaziyatlarda tilni qo'llash orqali erkin gapira boshlaydi. Harmer integratsiyalashgan topshiriqlar, loyihalar va rolli o'yinlar talabalarning nutqiy ishonchini oshirishini va psixologik to'siqlarni kamaytirishini ko'rsatadi (Komilova, 2023).

W. Littlewood og'zaki nutqni rivojlantirishni ijtimoiy muloqot jarayoni sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko'ra, til faqat individual faoliyat emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir mahsulidir. Shu sababli, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan guruhviy va jamoaviy ishlar og'zaki nutqni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi (Komilova, 2024).

Donna Brinton, Marguerite Snow va Marjorie Weschelar mazmun asosida til o'qitish (Content-Based Instruction) konsepsiyasini ilgari surib, fan mazmuniga tayangan holda o'qitish til o'zlashtirishni jadallashtirishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, fan mazmuni talabalarga nutq uchun sabab yaratadi va bu og'zaki nutqning tabiiy rivojlanishiga olib keladi (Littlewood, 1981).

Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda integratsion yondashuv

Og'zaki nutq ko'nikmasi — bu fikrni mantiqiy, ravon va vaziyatga mos tarzda ifoda eta olish qobiliyatidir. Fanlararo integratsiya ushbu ko'nikmani rivojlantirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- real va mazmunli muloqot muhiti;
- kasbiy va akademik leksikaning faol qo'llanilishi;
- tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda nutqiy faoliyat;
- jamoada ishlash orqali interaktiv muloqot.

Masalan, muhandislik, menejment yoki axborot texnologiyalari fanlari mazmuni asosida tashkil etilgan munozaralar, taqdimotlar va rolli o'yinlar talabalarning og'zaki nutqini sezilarli darajada rivojlantiradi (Marsh, 2002).

### **MUHOKOMA VA NATIJALAR**

Amaliy metodlar va mashqlar

Fanlararo integratsiya asosida og'zaki nutqni rivojlantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- Muammoli savollar va bahslar – fan mavzulari asosida munozara tashkil etish;
- Loyiha ishlari – integratsiyalashgan mavzular bo'yicha og'zaki taqdimotlar;
- Rolli o'yinlar – kasbiy vaziyatlarni modellashtirish;
- Case-study – real muammolarni chet tilida tahlil qilish va yechim taklif etish.

Ushbu metodlar talabalarni faol ishtirok etishga undaydi va nutqiy ishonchni oshiradi.

Shuningdek, Fanlararo integratsiya asosidagi mashqlarda o'qituvchi va talabaning rolini asosli vazifalar orqali ko'rib chiqamiz.

O'qituvchining roli

Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'qituvchi asosiy bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi va yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining asosiy vazifalari:

- fan va chet tili mazmunini integratsiyalash;
- og'zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muammoli vaziyatlar yaratish;
- bahs, munozara va rolli o'yinlar uchun nutqiy muhit tashkil etish;
- talabalarning nutqiy faolligini rag'batlantirish;
- xatolarni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki refleksiya orqali tuzatish;
- baholashda jarayon va natijani birgalikda hisobga olish.
- Ilmiy jihatdan, o'qituvchi bu yerda fasilitator, moderator va maslahatchi rolini bajaradi.

Talabaning roli

Integratsiyalashgan mashg'ulotlarda talaba passiv tinglovchi emas, balki faol muloqot ishtirokchisi hisoblanadi. Talaba bilimni tayyor holda emas, balki og'zaki nutq jarayonida egallaydi.

Talabaning asosiy vazifalari:

- fan mavzulari asosida fikr bildirish va asoslash;
- guruh va juftliklarda hamkorlikda ishlash;
- og'zaki taqdimot va bahslarda faol ishtirok etish;
- o'z fikrini chet tilida mantiqiy va ravon ifodalash;
- muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror chiqarish;
- o'z nutqini tahlil qilish va takomillashtirish (Mehmonov, 2020)

Talaba bu jarayonda bilim yaratuvchi subyekt sifatida qaraladi.

Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish omillari:

1. Motivatsiya omili. Talabaning ichki va tashqi motivatsiyasi nutqiy faollikni belgilovchi muhim omildir. Motivatsiya mavjud bo'lgan sharoitda talabalar muloqotga faol kirishadi va tilni qo'llashdan qo'rqmaydi (Littlewood, 1981).
2. Psixologik omillar. Nutqiy to'siqlar, hayajon va xatodan qo'rqish og'zaki nutq rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish ushbu muammolarni kamaytiradi.

3. Interaktiv metodlar. Rolli o'yinlar, bahs-munozaralar, loyiha ishlari va case-study usullari nutqiy faollikni oshiradi hamda real muloqot muhitini yaratadi (Harmer, 2007).

Yuqorida berilgan fikrlarni an'anaviy dars va fanlararo integratsiya asosida dars olib borilishini farqini ushbu jadval asosida quyidagicha izohlaymiz:

**1-jadval.**

<i>Aspekt</i>	<i>An'anaviy dars</i>	<i>Fanlararo integratsiya asosida</i>
O'qituvchi	Axborot beruvchi	Fasilitator, yo'naltiruvchi
Talaba	Passiv tinglovchi	Faol muloqotchi
Nutq	Cheklangan	Erkin va mazmunli
Faoliyat	Individual	Hamkorlikka asoslangan
Baholash	Natijaga yo'naltirilgan	Jarayon va natijaga yo'naltirilgan

Ushbu berilgan jadvalda ma'lumki, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'qituvchi va talaba rollari tubdan o'zgaradi. O'qituvchi muloqotni tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritsa, talaba bilimni faol nutqiy jarayon orqali egallovchi markaziy subyektga aylanadi. Ushbu yondashuv og'zaki nutq ko'nikmalarining samarali rivojlanishini ta'minlaydi (Richards, 2006).

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'qitishda fanlararo integratsiya yondashuvi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Integratsiyalashgan ta'lim talabalarning tilga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, nutqiy faoliyatni tabiiy va mazmunli qiladi hamda ularni kasbiy muloqotga tayyorlaydi. Shu bois, fanlararo integratsiyani chet tillarini o'qitish jarayoniga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Brinton, D. M., Snow, M. A., & Wesche, M. B. (2003). *Content-based second language instruction*. University of Michigan Press.
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and language integrated learning*. Cambridge University Press.
3. Harmer, J. (2007). *How to teach English*. Longman.
4. Komilova, G. U. (2023). English for chemist-engineers: English for specific purposes. *ResearchGate*.  
<https://www.researchgate.net/publication/394432847> English for Chemist-Engineers English for Specific Purposes
5. Komilova, G. U. (2024). Innovative applications of technology in interdisciplinary English language teaching. *Zenodo*.  
<https://zenodo.org/records/15277354>
6. Littlewood, W. (1981). *Communicative language teaching*. Cambridge University Press.
7. Marsh, D. (2002). *CLIL/EMILE – The European dimension*. University of Jyväskylä.
8. Mehmonov, S. (2020). *Chet tillarini o'qitishda integrativ yondashuvlar*. Fan.
9. Richards, J. C. (2006). *Communicative language teaching today*. Cambridge University Press.